www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

3D INTERAKTIV TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Xoliqova Lutfiya Umurzoqovna

Namangan State University, Linguistics:english, master's degree. 2023y

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang‘ich sinflarda bolalarga ingliz tili o'qitish didaktik imkoniyatlariga bag'ishlangan. Ushbu maqola da bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o‘rgatish usullari haqida umumiy bildiriladi.
Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ingliz tilini o'qitish, temperament, gadjetlar, ingliz tili, didaktika, didaktik texnologiya, o'yinlar

Abstract: This article is dedicated to the didactic possibilities of teaching English to children in primary grades. This article provides an overview of ways to teach English to children in a meaningful and interesting way.
Аннотация: Данная статья посвящена дидактическим возможностям обучения английскому языку детей в начальных классах. В этой статье представлен обзор способов преподавания английского языка детям содержательным и интересным способом.

Dono xalqimizning shunday hikmatli so'zlari bor, **"Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir"**, yoki **"Oz oz o'rganib dono bo'lir, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur".** Darhaqiqat erta yoshdan o'rganilgan har qanday bilim xotiraga chuqurroq muhrlangan, mustahkam o'zlashtirilgan bo'ladi. Psixologlarning fikricha, bolalar 5yoshgacha o'zlashtirgan bilimlarini 50yoshda ham unutmas ekanlar. Erta yoshda, aynan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning xotirasi tiniq va bilimga chanqoq bo'lgani sababli biror bilimni o'zlashtirishsa mustahkam poydevor qo'yiladi. Shu sababdan ingliz tilini o'qitishni ham boshlang'ich sinfdan o'qitish boshlandi. Hali o'z ona tilida yozishni bilmaydigan o'quvchilar ingliz tilini tinglab-tushunish va bevosita amalda (sun'iy muhitda bo'lsa ham) bajarish (takrorlash) orqali, hamda turli didaktik o'yinlar yordamida o'rgana boshladilar. Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitishdagi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" PQ-1875-soni Qaroridir . Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan , ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun barcha umumta'lim maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitishni zamonaviy, innovatsion usullar orqali o'tish bosqichma-bosqich boshlandi.

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Uchdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning unchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirip qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi . Shuning uchun ham

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun turli innovatsion metodlardan, didaktik o'yinlardan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur.[3]

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtlrlshga asoslangaln Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlami ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: Intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy ahloqiy, psixologik, estetik, badiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy jismoniy, roli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlari bo'yicha ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish hulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, ahloq odob o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.[1,2]

Keling, ingliz tili darsini mazmunli o‘tkazish uchun didaktik o‘yinlardan bir nechta misollarni ko‘rib chiqamiz.

✓ **PICTIONARY**? ko‘pchilik ingliz tilini o‘rganuvchilar biladigan rasm chizish o‘yini. Bu o‘yin uchun oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanamiz. Sinfni ikki gruhga bo‘lib olamiz va har bir jamoa uchun doskaning bir tomoniga jadval chizamiz va jamoalarninig to‘plagan ballarini shu yerga yozib boramiz, guruhlar o‘zlari uchun nom tanlaydilar. So‘ng har bir guruhdan bitta o‘quvchi doskaga chiqib, teskari o‘girilgan so‘zlardan bittasini tanlaydi va uni doskaga chizib ko‘rsatadi, qolganlar uni topadi. So‘zni birinchi topgan jamoaga ball beriladi.

✓ **OBJECTS**? — bu qiziqarli o‘yin orqali o‘quvchilarning xotirasi va so‘z boyligini tekshiramiz. So‘z boyligimizni qanchalik oshirsak, ingliz tilida so‘zlashuv mahoratimiz shuncha yaxshilanib boraveradi. O‘yinning shartlari: doska va sinfxonada joylashgan 15 buyumdan foydalanamiz. Buyumlarning hammasini stol ustiga qo‘yib, barcha o‘quvchini chaqirib, stol ustidagi buyumlarni ko‘zdan kechirishlarini aytamiz, so‘ng hamma buyumlarning ustini biror narsa bilan berkitamiz. So‘ng o‘quvchilardan eslab qolgan 15 ta buyumni qog‘ozga yoki daftarlariga ingliz tiliga yozishlarini so‘raymiz. 2-3 daqiqadan so‘ng o‘qituvchi buyumlar nomlarini doskaga yozadi va o‘quvchilar o‘zlari yozgan buyumlar nomlarini tekshirib oladi. Eng ko‘p to‘g‘ri yozgan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

✓ **BACK TO BACK?** — бу o‘yin o‘quvchi xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o‘stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo‘yib chiqamiz, ikki o‘quvchini doskaga chiqaramiz va ularning birovidan rasmlarni tanlab olishini so‘raymiz, ikkinchi o‘quvchiga ko‘rsatmasdan ular ikkita bir-biriga teskari stulga o‘tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulda unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi o‘quvchi eshitgan so‘zlarni qog‘ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin yuqori sinflar uchun ham juda qiziqarli.

✓ **BINGO**? — bu o‘yinni o‘ynash uchun biroz tayyorgarlik ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Ammo u juda qiziqarli. 4x4 shaklda bingo qog‘ozlarini tayyorlang va har bir katagiga so‘zlar yozing hamda o‘quvchilarga tarqating. So‘zlar takrorlanmasligi va siz ularni o‘qib berganingizda o‘quvchilar borlarini belgilashlari kerak. Sahifadagi barcha so‘zlarni birinchi bo‘lib belgilagan o‘quvchi g‘olib sanaladi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rga tishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi , ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.5

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/didaktik-o-yinlar-turlari-va-maqsadlari

2. https://doi.org/10.5281/zenodo.7271159

3. https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinflarda-ingliz-tili-oqitishning-innovatsion-usullari

4. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" PQ-1875-soni Qarori

5. "BOSHLANG'ICH SINFLARGA INGLIZ TILI DARSLARINI QIZIQARLI VA SAMARALI TASHKIL ETISH" Archabayeva Nargiza Nasimovna - JDPI stajyor o'qituvchisi, Mahkamboyeva Shaxrizoda Xusan qizi -JDPI talabasi, Mahkamboyeva Ozoda Xusan qizi - JDPI talabasi